

FORS TILIDAGI TURKIY SO‘Z YASOVCHI QO‘SHIMCHALAR

Djafarov Bexzod Farxodovich

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti o‘qituvchisi

Nig‘monov Abdulazizxon Safiyulloh o‘g‘li

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

O‘zlashmalar deyarli har bir tilning lug‘at tarkibida uchraydi. Bunday so‘zlar xalqlar o‘rtasidagi munosabatlar natijasidir. Mazkur o‘zlashmalar orasida so‘z yasovchi qo‘shimchalar ham bo‘lishi mumkin. Mazkur maqola fors tilidagi turkiy tillardan kirgan qo‘shimchalarga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: o‘zalashma, affiks, morfema, suffiks, leksik birliklar, arxaik so‘zlar.

АННОТАЦИЯ

Заимствования встречаются в словарях почти всех языков. Такие слова являются результатом отношений между народами. Эти заимствования могут включать аффиксы. Эта статья о тюркских аффиксах в персидском языке.

Ключевые слова: заимствования, аффикс, морфема, суффикс, лексические единицы, архаичные слова.

KIRISH

Til ijtimoiy hodisa bo‘lib, u doimo o‘zgarib, rivojlanib, takomillashib boradi. U hamisha yangilanib turadi, keraksiz va ortiqcha so‘zlar, iboralar, atamalar oxir-oqibat tilning lug‘aviy tarkibidan yo‘qoladi. Ular ichki resurslar yoki so‘z o‘zlashtirish bilan yangi leksik birliklar bilan almashtiriladi. Boshqa tildan olingan leksik birliklar “o‘zlashmalar” deb ataladi va ular orqali biz tilning rivojlanish bosqichlari, uning boshqa tillar bilan aloqasi va undagi o‘zgarishlar haqida bilib olishimiz mumkin. O‘zlashmalarning biror biri tilga kirib kelishi “o‘zlashish” deyiladi. “O‘zlashish - bu lingvistik aloqalar natijasida bir tildan ikkinchisiga o‘tkazilgan chet tilining elementi (so‘z, morfema, sintaktik tuzilish va boshqalar), shuningdek, bitta til elementlarining boshqa tilga o‘tish jarayonidir”[1].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Hozirgi fors tili o‘zlashma qatlamining kichik bir bo‘lagi bo‘lmish turkiy leksik birliklar miqdori, ishlatilishi jihatidan arabiy va yevropa tillaridan kirgan

o‘zlashmalardan keyingi o‘rinda turadi. Turkiy o‘zlashmalarning fors tiliga kirib kelishi turli davr va sharoitlarda amalga oshgan. Bu eng avvalo eroniy va turkiy xalqlarning turli jabhalardagi o‘zaro aloqalari mevasidir.

Fors tilida turkiy o‘zlashmalar faqat so‘zlardan iborat emas. Ular orasida affikslar ham mavjud. Albatta bu affikslar sanoqli va qo‘llanish doirasi ham kichikdir. Bu qo‘shimchalarning aksari hozirda arxaik so‘zlar qatoriga kirib qolgan. Mazkur kichik tadqiqotimizda quyidagi qo‘shimchalarni ko‘rib chiqamiz:

تاش –*tāš* suffiksi. Bu qo‘shimcha arxaik so‘z yasovchi qo‘shimchalar qatoriga kirgan bo‘lib, fors tilida undan ba‘zi bir so‘zlarga yasalgan. Masalan, خواجه تاش *hājetāš* “janob”, خيلتاش *xeyltāš* “hammaslak”, تيمورتاش *teymurtāš* “Temurdosh” (ism). Bu affiks bilan yasalgan so‘zlar hozirgi kunda juda kam qo‘llaniladi.

الو –*ulu* (–*ule*, –*lu*) suffiksi. Bu suffiks erkalash va kichraytirish ma‘nosidagi so‘zlarni, shuningdek, antroponim va toponimlar yasaydi. Masalan, زنگوله *zangule* “qo‘ng‘iroqcha”, مشكوله *maškule* “kichkina mesh”, کوچولو *kučulu* “mitti”, “jajji bola”, قزولو *qozulu* “kichkina qo‘zi”, ابدارلو *abdarlu* “Abdarlu” (joy nomi).

باشی –*bāši* poluaffiksi. Mazkur qo‘shimcha nafaqat turkiy so‘zlar tarkibida uchratish mumkin balki, boshqa forsiy va arabiy so‘zlarga ham qo‘shilib “rahbar”, “boshliq” degan ma‘nolarni anglatuvchi so‘zlarni yasaydi. يوزباشی *yuzbāši* “yuzboshi”, باغبانباشی *bāybānbāši* “bog‘bonboshi”, حمالباشی *hammālbāši* “hammolboshi”.

بگی –*begi* poluaffiksi. Mazkur poluaffiks ham so‘zlarga qo‘shilib “boshliq” ma‘nosini anglatuvchi yangi so‘zlarni yasaydi, masalan, دادبگی *dādbegi* “sudya”, قلعبگی *qal‘abegi* “qal‘a rahbari”, دریابگی *daryābegi* “Daryobegi” (ism). Bu qo‘shimcha ham kammahsuldir va u orqali yasalgan so‘zar arxaik so‘zlar qatorida turadi.

Yu.A. Rubinchik esa yuqoridagilardan tashqari لاخ –*lāx* qo‘shimchasini ham turkiy suffiks sifatida qayd etadi [2:142].

چی –*či* suffiksi. Mazkur so‘z yasovchi qo‘shimcha fors tilidagi kelib chiqishi turkiy bo‘lgan boshqa affikslarga nisbatan sermahsuldir. Bu suffiks forsiy va boshqa tillardan kirgan o‘zlashmalarga qo‘shilib kasb-hunar ma‘nosini anglatuvchi leksemalar yasaydi.

Bu qo‘shimcha haqida Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida shunday deyiladi:

“Yana bir adolar borki, ba‘zi alfozning so‘ngg‘ida “ch”, “yoy” ki, “chi” lafzidir, orttururlar, yo mansabning yo hunarning yo peshaning izhori uchun; forsiyda yo qdir, balki alar ham turkcha ayturlar.

Mansabda andoqki, qo‘rchi va suvchi va xizonachi va kerak-yarog‘chi va chavgonchi va nayzachi va shukurchi va yurtchi va shilonchi axtachi yo‘sinlig‘ ko‘pdir.

Hunar va peshada andoqki, qushchi va borschi va qo‘ruqchi va tamg‘achi va jibachi va yo‘rg‘achi va halvochi va kemachi va qo‘ychi.

Andoqki, qush hunarida dag‘i bu istiloh, bordur, andoqki, qozchi va quvchi va turnachi va kiyikchi va to‘vushqonchiki, sort lafzida yo‘qtur. Va alar mazkur bo‘lgonlarning ko‘pin turkcha ayturlar” [3:18].

Navoiy keltirgan misollardan ba‘zilarini hozirgi fors tilida ham uchratish mumkin. Masalan, *qushchi* hozirgi fors tilida ham “ovchi qushlarni boquvchi” ma’nosida keladi, xususan, Ali Akbar Dehxudo ham bu so‘zni shunday ma’noda ta’riflaydi [4]:

قوشچی. (ترکی ، ص مرکب ، ا مرکب) نگاهداری قوش. (ناظم الاطباء). کسی که نگهبان پرندگان شکاری است. (فرهنگ نظام). میرشکار. (آندراج) (غیث اللغات).

Shuningdek, Dehxudo bir qancha qishloq nomlarini shu nom bilan atalishini ham qayd etadi [4]:

قوشچی. (اِخ) نام یکی از دههای بارفروش مازندران. (ترجمه مازندران و استرآباد رابینو ص 159).

قوشچی. (اِخ) دهی است جزء بخش شهریار شهرستان تهران ، سکنه آن 88 تن. آب آن از رودخانه کرج. محصول آن غلات ، بنشن ، چغندر قند و صیفی و شغل اهالی آنجا زراعت است. در زمستان از ایل عرب میش مست در این ده ساکن هستند. تپه خرابه ای به نام جمشیدگلی و راه مالرو دارد. (از فرهنگ جغرافیایی ایران ج 1).

قوشچی. (اِخ) دهی است از دهستان انزل بخش حومه شهرستان ارومیه ، سکنه آن 270 تن. آب آن از چشمه و قنات. محصول آن غلات ، توتون ، چغندر ، بادام و کشمش. شغل اهالی زراعت و صنایع دستی زنان آنجا جوراب بافی است. راه ارابه رو و دبستان و ژاندارمری دارد. (از فرهنگ جغرافیایی ایران ج 4).

قوشچی. (اِخ) دهی است از دهستان حومه شاهین دژ شهرستان مراغه ، سکنه آن 15 تن. آب آن از چشمه. محصول آن غلات و کرچک. شغل اهالی زراعت و صنایع دستی زنان آنجا جوراب بافی است. راه مالرو دارد. (از فرهنگ جغرافیایی ایران ج 4).

D. Rahimliy ham o‘zining “Fors tilidagi turkiy o‘zlashmalar” asarida bu suffiks haqida ma’lumot berib, u “چو– va –چی (–čū va –čī) suffikslari bilan tugagan so‘zlar fors tilidagi turkiy o‘zlashmalar ekanligini qayd etadi va bu turdagi so‘zlarga quyidagilarni namuna sifatida beradi: قیچی *qeyči* “qaychi”, قامچی *qamči* “qamchi”, کشیکچی *kešikči* “kontrabandachi”, قایقچی *qāyiqči* “qayiqchi”, قایقچی *qāyiqči* “elchi”, قایقچی *qāyiqči* “navbatchi” va boshqalar” [5:84].

L.S. Peysikov چی –čī suffiksi haqida fikr yuritir ekan, bu suffiks hozirgi zamon fors tilida forsiy va boshqa tillardan kirgan o‘zlashmalarga bemalol qo‘shilib kasb-

hunar ma'nosini anglatuvchi so'zlarni yasashda ishtirok eta olishini ta'kidlaydi. Masalan, شکارچی *šekārči* "ovchi", معدنچی *ma'danči* "konchi", درشکه *doreškači* "izvoshchi". Shuningdek, bu suffiks og'zaki muloqotda ba'zi bir so'zlarga qo'shilib adabiy tilda mavjud bo'lmagan yangi so'zlar yasaydi. Masalan, روزنامه *ruznāmeči* "gazetachi", سینماچی *sinemāči* "kinochi", پستچی *postči* "pochtachi", مشورت *mašvaratči* "maslahatchi". Bundan tashqari so'z birikmalari va arab tilidan kirgan حقالمالچی *hayollmālči* "dallol" kabi statuskonstruktiv tipidagi lug'at birliklariga ham qo'shilish holatlari kuzatiladi [6:50].

Avval aytganimizdek, mazkur qo'shimcha keng qo'llaniladigan qo'shimchalardandir. Bu qo'shimcha hozirda ham yozma manbalarda uchraydi:

ایسنا/کرمان: فرمانده انتظامی شهرستان کرمان از کشف 8 سلاح شکاری و جنگی در کرمان از یک شکارچی غیرمجاز خبر داد.

Isnā/kermān: farmāndeh-e entezāmi- ye šahrestān kermān az kašf-e 8 salāh-e šekāri va jangi dar kermān az yek šekārchi-ye yeyr-e majāz xabar dād.

"ISNA/Kerman Kirmon shahri politsiya qo'mondoni Kirmonda noqonuniy ovchidan 8 dona ov va urush qurollari topilganini ma'lum qildi".

Ushbu jumladagi شکار - suffiksi forsiy شکار so'ziga qo'shilib yangi so'z yasamoqda.

شکار + چی ← شکارچی

Shuningdek, چی - suffiksi arabiy va yevropa tillaridan kirgan so'zlarga ham qo'shilib, yangi so'z yasashda xizmat qilishi mumkin:

شلاق در شکه چی بلند شد و راه افتادیم. (جمالزاده: فارسی شکر است)

šallāy-e doroškeči boland šod va rāh oftādim.

"Izvoshchining qamchisi ko'tarildi va yo'lga tushdik".

Ushbu jumladagi شکه - suffiksi rus tilidan kirgan درشکه so'ziga qo'shilib, yangi so'z yasamoqda.

درشکه + چی ← درشکهچی

شهباز بعد از کمی سکوت رو کرد به قهوه چی و گفت:

"دش اکبر، دو تا قند پهلو بیار". (صادق هدایت: محلل)

šahbāz bad az kami sokut ru kard ba yahveči goft:

"dāš akbar do tā yand pahlū biyār"

Shahboz biroz sukutdan so'ng qahvachiga qaradi va dedi:

"Akbar aka ikkita qand olib keling"

باز نظافتچی مرا بیدار کرد

- شما که نخور ده اید؟

- من نمی خورم. (بزرگ علوی: شب اول زندان)

bāz nezāfatči marā bidār kard.

- *šomā ke naxordeid?*

- *man namixoram.*

Yana farrosh meni uyg'otdi.

- Siz yemadingizmi?

- Men yemayman.

Ushbu jummalardagi arabiy قهوه va نظافت so'zlari o'zlariga چی - so'z yasovchi qo'shimchasini qabul qilmoqda.

قهوه + چی ← قهوه چی
نظافت + چی ← نظافتچی

XULOSA

Xulosa so'z o'rnida shuni aytish mumkinki, fors tiliga turkiy tillardan sanoqli qo'shimchalar o'zlashgan. Bu qo'shimchalarning aksari kammahsuldir va ular orqali yasalgan so'zlar arxaik so'zlar qatoriga kirib qolgan. Bu so'zlar asosan tarixiy matnlarda uchraydi. Shuningdek, fors tilidagi turkiy so'z yasovchi qo'shimchalar nafaqat turkiy balki, arabiy va boshqa tillardan kirgan so'zlarga ham qo'shib yangi so'z yasashi mumkin. Bu qo'shimchalar orasida چی - so'z yasovchi qo'shimchasi sermahsuldir. Mazkur affiks orqali yasalgan so'zlar hozirda ham keng qo'llaniladi.

REFERENCES

1. Chen Y. et al. Иноязычные заимствования в современном русском языке //Вестник Новосибирского государственного педагогического университета. – 2015. – №. 4. – С. 86-93.
2. Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. – М.: Издательская фирма “Восточная литература” РАН, 2001.-601 с.
3. Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. Мукаммал асарлар тўплами. – Тошкент: Фан, 2000. Т.16. -329 б.
4. دهخدا علی اکبر. لغتنامه – تهران. ۱۳۱۹
5. دردانه رحیملی. واژه های ترکی در زبان فارسی. مترجم وحیدی هلان. –، ۱۳۸۱ تیریز. ص. ۱۰۴.
6. Пейсиков Л.С. Лексикология современного персидского языка. – М.: Наука, 1975. –207 с.